

TA`LIM SOHASIDA YARATILGAN KENG IMKONIYATLAR

Innovatsion Menejment kafedrasи PhD dotsenti

Ibrohimov G'anijon

Menejment fakulteti MNP-62 guruh talabasi

Sultanov Olimboy

Annatotsiya: Mazkur maqolada hozirgi kun va XX-XXI asr ta'lim sifati va ta' lim sohasidagi tub o'zgarishlar, oldingi davr madrasalari, yangi yaratilgan texnologiya va metodlar haqida so'z yurtildi.

Аннотация: В данной статье говорится о качестве образования и принципиальных изменениях в сфере образования в 20 и 21 веках, медресе прошлого, вновь созданных технологиях и методах.

Annotation: This article talks about the quality of education and fundamental changes in the field of education in the 20th and 21st centuries, madrasahs of the past, newly created technology and methods.

Kalit so'zlar: "Metodika", "Madrasa", "Ta'lim krediti", "Bepul ta'lim", " "Texnologiya"

Ключевые слова: «Методология», «Медрасе», «Образовательный кредит», «Бесплатное образование», «Технология».

Keywords: "Methodology", "Madrasah", "Educational Credit", "Free Education", ""Technology"

Qayerda ta'limga, ilm-fanga yaxshi sharoit yaratilgan bo'lsa, o'sha yerda har tomonlama yetuk kadrlar yetishib chiqadi. Hozirgi kunda yurtimizda ta'lim tizimini yaxshilash uchun ko'plab sharoitlar yaratilmoqda. Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyayev yoshlarning sifatli ta'lim olishi uchun barcha imkoniyatlarni yaratib bermoqda. Kundan kunga yangi mакtab va maktabgacha ta'lim muassasalari hamda oliy ta'lim yurtlari barpo etilmoqda. Xususan, umumiy o'rta ta'lim maktab va litseylarda ta'lim sifatini yaxshilash va yoshlarning

mustaqil, erkin fikrlay olishi uchun yangi darslik, qo'llanma va metodlar ishlab chiqilmoqda. “Maktablarda xorijiy til bo'yicha o'quv dasturlarini takomillashtirish, oliv ta'lim muassasalarining o'quv rejalarini bu bilan uyg'unlashtirish zarur. Xorijiy tilni intensiv tarzda o'rgatish amaliyotini ham kengaytirish lozim.”

Sovet davri ta'lim tizimi va hozirgi kundagi ta'lim sifatini solishtirganda bugungi kundagisi ancha yaxshiroq va imkoniyatlari kengroq. Sovet tuzumi davrida ta'lim sifati ancha past bo'lgan va ta'lim muassasalari ham sanoqli bo'lgan. Bu davrda ba'zi odamlar savodsiz ham bo'lishgan. Yurtimiz mustaqillikka erishgandan keyin ta'lim sohasida tub burilish yuz berdi. Hozirgi kunda yoshlar ilm olishi uchun 11 yillik bepul ta'lim tizimi joriy etilgan. Bir qancha yangidan yangi texnologiyalar ishlab chiqilgan.

Shuni ta'kidlash joizki, islom olamida madrasalarning ham ahamiyati katta. Oldinlari ko'plab allomalar madrasalarda tahsil olishgan. Madrasada o'qigan talabalar ilm olish bilan birgalikda hunar bilan ham shug'ullanishgan. Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Xondamir shular jumlasidandir. Madrasalarda talabalar kichkina hujralarda tahsil olishgan. Buxorodagi Mir Arab madrasasi, Abdullaxon madrasasi, Abdulazizzon madrasasi, Samarqanddagi Ulug'bek, Sherdor, Tillakori madrasalari, Xivadagi Muhammad Rahimxon madrasasi kabi madrsalarda tahsil olishgan va bu madrsalar hozirgi kunda ham ôz faoliyatini olib bormqada.

Ma'lumki, yurtimizda xususiy maktablarga imkoniyat berilgani natijasida ularning soni ko'payib bormoqda. Bu davlat maktablariga yuklamani kamaytirish va sog'lom raqobatga xizmat qilmoqda.” Maktabgacha ta'lim bosqichidanoq o'qish, yozish va hisoblash kabi ko'nikmalar bilan bir qatorda muloqot qilish va tanqidiy fikrlash kabi ko'nikmalarni rivojlantirish muhim, chunki busiz yoshlar yanada yuksak darajadagi fikrlashni talab qiladigan kelgusi ta'limga va ish joyiga ega bo'la olmaydilar. Natijada mehnat bozoridagi raqobatda yengib chiqish imkoniyatidan mahrum bo'ladilar.”

Jumladan, Oliy o'quv yurtlariga o'qishga kantrkat-to'lov asosida kirgan talabalar uchun "Ta'lif krediti" tashkil etilgan. Bu ham yoshlar uchun yangi imkoniyat desak bo'ladi. "Talaba universitetda o'qiyotganda faqat foiz to'lashi mumkin, ya'ni juda kichik miqdorda to'lov qilib boradi. Universitetni tugatib, muvaffaqiyatli ishga joylashgandan so'ng kreditni to'liq to'lashi mumkin. O'qishni tugatgandan so'ng yana olti oy beriladi: bu muddat ham imtiyozli davrga kiritilgan. Odatda bu vaqt yosh mutaxassisga ish topishi uchun yetarli.

Masofaviy ta'lif an'anaviy ta'lif tizimiga nisbatan katta farqlar yaratmoqda. Masofaviy ta'lif nafaqat ta'lifning sifatini oshirish, balki uni global miqyosda erkin va qulay qilish imkonini bermoqda. Zoom, Google Meet, Microsoft Teams kabi platformalar orqali o'qituvchilar talabalar bilan onlayn darslar o'tkazishlari mumkin. Masofaviy ta'lifning asosiy afzallikkleri fizikaviy jismoniy joy cheklarining yo'qolishi. O'quvchilar darslarni o'zlarining uylaridan yoki boshqa istalgan joydan olishlari mumkin. Bu, ayniqsa, qishloq joylarda yashovchi yoki ishlayotgan talabalar uchun juda foydalidir va afzalliklaridan yana bittasi maqsadga yaratilgan pedagogika masofaviy ta'lifda talabalar uchun moslashtirilgan yondashuvlar, individual o'quv rejalarini yaratish imkoniyati mavjud. Bu esa o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini oshiradi. Germetizatsiya va Interaktivlik: Masofaviy ta'lifda taqdim etilgan materiallar interaktiv tarzda ishlab chiqiladi. Darslar video, matn, slaydlar va mashqlar yordamida o'qitiladi, bu esa o'quvchilarni passiv tomosha qilishdan ko'ra faol ishtirok etishga undaydi.

Hozirgi kunda zamonaviy pedagogik yondashuvlar o'qituvchilarga ta'lif jarayonini yanada samarali va shaxsiylashtirilgan tarzda tashkil qilish imkoniyatini beradi. Aktiv o'qitish metodlari, guruh ishlari va muammoli o'qitish kabi metodlar o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlashga yordam beradi. Shu bilan birga, o'qituvchilar uchun yangi texnologiyalar va pedagogik metodlarni o'rganish va qo'llash zaruriyati yuzaga kelmoqda.

Texnologiyalarni o`qitishda qo'llash: O'qituvchilar interaktiv doskalar, raqamli materiallar va o'quv platformalaridan samarali foydalanishni o'rganishlari kerak. Shaxsiy lashtirilgan o'qitish: Har bir o'quvchining individual ehtiyojlari va o'qish uslublarini hisobga olish orqali ta'lif jarayoni samarali bo'ladi.

Xulosa: Xulosa o'rnilida shuni aytish joizki, sifatli ta'lif kelajakimiz poydevoridir. Ta'lif sifatini yaxshilash uchun yosh va bilimli kadrlar yetishtirish, maktab, litsey va oliy gohlarda zamonaviy metodlarni qo'llash, ko'proq yangi texnologiyalardan foydalanish, yoshlarning bilim olishi uchun barcha zarur sharoitlarni yaratish lozim. Har bir millat ta'lif tizmi va sifati bilan alohida ajralib turadi. Bizning yurtimiz ham kundan kunga rivojlanib, ta'lif sohasida katta yutuqlarga erishib, yangidan yangi texnologiya va metodikalar yaratilib bir qancha davlatlar qatori rivojlanib bormoqda.

FOYDALANILGAN RO'YXATLAR:

- 1.Ijtimoiy tarmoq: deposit.uz
- 2.Ijtimoiy tarmoq: yuz.uz
- 3.wikipedia
- 4.Ijtimoiy tarmoq: unicef.org